



IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.1 № 1

2024

**“IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA
ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR”**
ilmiy-metodik jurnali

Bosh muharrir:

Boltaeva Mohichehra

Tahrir hay'ati:

07.00.00 - Tarix fanlari

- Ergasheva Yulduz — Tarix fanlari doktori, professor
- Zununova Gulchehra — Tarix fanlari doktori, professor
- Kurbonova Zemfira — Tarix fanlari doktori, professor
- Askar Jumashayev — Tarix fanlari doktori, professor
- Nurjanov Sabit Uzakbayevich — Tarix fanlari doktori, katta ilmiy xodim
- Xaydarov G'ayratbek Mirzapulatovich — Tarix fanlari doktori, dotsent
- Seydametova Gulnara Utarbayeva — Tarix fanlari falsafa doktori, dotsent
- Nasirov Bunyod — Tarix fanlari falsafa doktori, dotsent

09.00.00 - Falsafa fanlari

- Yaxshilikov Juraboy Yaxshilikovich — Falsafa fanlari doktori, professor
- Saitkasimov Akbar Isaxanovich — Falsafa fanlari doktori, professor
- Musaev Odil Raxmatovich — Falsafa fanlari doktori, professor
- Suvanov Ilxon Abdusalilovich — Falsafa fanlari doktori, katta ilmiy xodim
- Alima Berdimuratova — Falsafa fanlari doktori, professor
- Kabulniyazova Gulchehra Tashpulatovna — Falsafa fanlari doktori, professor
- Siddikov Ilyos — Falsafa fanlari doktori, dotsent

10.00.00 - Filologiya fanlari

- Zakirova Soxiba — Filologiya fanlari doktori, dotsent
- Ganiyeva Shodiya Azizovna — Filologiya fanlari doktori, dotsent
- Soatova Nodira — Filologiya fanlari doktori, professor
- Kobilova Zeboxon Bakirovna — Filologiya fanlari doktori, professor

13.00.00 - Pedagogika fanlari

- Jo'rayev Risbay Xaydarovich — Pedagogika fanlari doktori, akademik
- Turgunoy Egamberdiyeva — Pedagogika fanlari doktori, akademik
- Ibragimov Xolboy Ibragimovich — Pedagogika fanlari doktori, akademik
- Turakulov Olim Xolbutayevich — Pedagogika fanlari doktori, professor
- Abdullayeva Barno Sayfutdinovna — Pedagogika fanlari doktori, professor
- Ismoilov Temur Islamovich — Pedagogika fanlari doktori, professor
- Umid Negmatovich Xo'jamqulov — Pedagogika fanlari doktori, professor
- Isakulova Nilufar — Pedagogika fanlari doktori, professor
- Jumanëzova Muxayyo Tojiyevna — Pedagogika fanlari doktori, dotsent

19.00.00 - Psixologiya fanlari

- Abdullayeva Dilbar — Psixologiya fanlari doktori, professor
- Atabayeva Nargis Batirovna — Psixologiya fanlari doktori, dotsent,
- Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
- Umarov Baxriddin Mengboevich — Psixologiya fanlari doktori, professor

- Shamshetova Anjima Karamaddinovna — Psixologiya fanlari doktori, dotsent
- Norbekova Barno — Psixologiya fanlari falsafa doktori, dotsent
- Abdumajidova Dildora — Psixologiya fanlari falsafa doktori, dotsent

23.00.00 - Siyosiy fanlar

- Jo'raqulov Furqat Norjigitovich — Siyosiy fanlar doktori, professor
- Axmedov Husnidin Alikulovich — Siyosiy fanlar doktori, professor
- Musaev Mansur Tursunpulatovich — Siyosiy fanlar doktori, katta ilmiy xodim Ravshanov
- Fazluddin Ravshanovich — Siyosiy fanlar doktori, dotsent

22.00.00 - Sotsiologiya fanlari

- Xolbekov Abdug'ani Jumanazarovich — Sotsiologiya fanlari doktori, professor
- Sodiqova Shoxida Marxaboyevna — Sotsiologiya fanlari doktori, professor
- Gabdrahmanova Gulnara Faatevna — Sh. Marjani nomidagi Tarix instituti, Tatariston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Sotsiologiya fanlari doktori, professor
- Kamalova Xatira Sabirovna — Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent

"Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar" - bu ilmiy-metodik jurnal bo'lib, O'zbekistonda 2024-yildan beri nashr etilmoqda. Jurnal har chorakda bir marta, yiliga 4 marta chop etiladi. Ushbu jarayonga talabga ko'ra muassislar va tahrir hayati bilan birlgilikda kelishgan xolda o'zgartirish kiritish mumkin.

MUNDARIJA

07.00.00 - Tarix.....	5
ОБРАЗОВАНИЕ КАРАКАЛПАСКОЙ АВТОНОМНОЙ ОБЛАСТИ: СТРАНИЦЫ ИСТОРИИ.....	5
Джумашев Аскар Мамбетович.....	5
07.00.00 - Tarix.....	10
O'RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDAGI ETNIK NOMLAR.....	10
Abdullaev Ulug'bek Saydanovich.....	10
Shamshiddinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li.....	10
09.00.00 - Falsafa.....	15
FALSAFIY ANTROPOLOGIYA MUSTAQIL BILIM SOHASI SIFATIDA.....	15
Qabulniyazova Gulchexra.....	15
09.00.00 - Falsafa.....	21
ISLOM FALSAFASIDA GNOSEOLOGIK FAOLIYATNI OLIB BORISHGA DOIR QARASHLARNING TARIXIY-FALSAFIY TAHLILI.....	21
Siddiqov Ilyosjon Baxromovich.....	21
13.00.00 - Pedagogika.....	33
РАССМОТРЕНЫ ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ СПЕЦИАЛЬНОСТИ “ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА И СПОРТ” К УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	33
Мухаммадиев Комил Бурхонович.....	33
13.00.00 - Pedagogika.....	49
SO'ROVNOMAGA ASOSLANGAN TADQIQOTLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI.....	49
Isakulova Nilufar Janikulovna.....	49
10.00.00 - Filologiya.....	57
SHE'RIYATDA FALSAFIY MUSHOHADAKORLIK.....	57
Soatova Nodira Isomitdinovna.....	57
10.00.00 - Filologiya.....	65
DETEKTIV QISSA YARATISHDA USLUBIY O'ZIGA XOSLIK.....	65
Turopova Parizod Shavkat qizi.....	65
10.00.00 - Filologiya.....	71
XORAZM MATBUOTI TARIXIDAN.....	71
Iqboloy Adizova Istamovna.....	71
19.00.00 - Psixologiya.....	82
O'SMIRLIK DAVRIDA DESTRUKTIV XULQ-ATVOR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	82
O'tamurodov Samandar G'ulom o'g'li.....	82
19.00.00 - Psixologiya.....	87
OILADA OTA-ONA MUNOSABATLARINING BOLALARDA MILLIY FAZILATLARNI SHAKLLANISHIGA TA'SIRI.....	87
Norbekova Barno Shavkatovna.....	87

19.00.00 - Psixologiya.....	92
SPORT PSIXOLOGIK TAYYORGARLIKNING MUAMMOLARI: KONTENT	
TAHLILI.....	92
Abdullayev Akobr Shokir o‘g‘li.....	92

10.00.00 - Filologiya

DETEKTIV QISSA YARATISHDA USLUBIY O'ZIGA XOSLIK

Turopova Parizod Shavkat qizi

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti dotsenti, (PhD)

turopova.parizod@bk.ru

Annotatsiya. Ushbu maqola Jizzax adabiy muhit vakili, Shahlo Ahrorovaning detektiv "Dala hovlidagi qotillik" qissasi tahliliga bag'ishlangan. Qissada detektiv janr xususiyatlari va qissa qahramonlarning hayotlarida ro'y bergan voqealar haqida so'z boradi. Adibaning detektiv qissa yaratishda uslubiy o'ziga xosligi olib beriladi.

Kalit so'zlar: detektiv, qissa, fofia, uslub, muallif shaxsi, badiiy asar, o'ziga xoslik.

STYLISTIC PECULIARITIES IN CREATING A DETECTIVE STORY

Turopova Parizod Shavkat kizi

Associate Professor at Jizzakh State Pedagogical University (PhD)

Abstract. This article is devoted to the analysis of the detective story "Murder in the Field Yard" by Shahlo Ahrorova, a representative of the Jizzakh literary environment. The story tells about the features of the detective genre and the events that happened in the lives of the heroes of the story. Adiba's stylistic uniqueness in creating a detective story is revealed.

Keywords: Detective, short story, tragedy, style, author's personality, artistic work, originality.

СТИЛЕВЫЕ ОСОБЕННОСТИ СОЗДАНИЯ ДЕТЕКТИВНОГО РАССКАЗА

Туропова Паризод Шавкат кизи

Доцент Джизакского государственного педагогического университета (PhD)

Аннотация. Данная статья посвящена анализу детективного рассказа «Убийство в полевом дворе» представительницы джизакской литературной среды Шахло Ахроровой. Повесть рассказывает об особенностях детективного жанра и событиях, произошедших в жизни героев повести. Раскрывается стилистическое своеобразие Адибы в создании детективного рассказа.

Ключевые слова: Детектив, новелла, трагедия, стиль, личность автора, художественное произведение, оригинальность.

KIRISH. Adabiyotshunoslikda ijodkor uslubi va badiiy mahorati masalasiga doir kattafkichik tadqiqotlar qilingan. Biroq, badiiy uslub har bir ijodkorning badiiy ijodida yangilanib turganidek, har bir asarda ham o‘ziga xoslikni namoyon etadi. Ma’lumki, ijodkor uslubi, uning dunyoni anglashi, inson va hayot falsafasini o‘ziga xos tarzda idrok etishi va idrok etgan hayotiy yoki hayoliy voqealarini badiiy bo‘yoqlarda ifodalashida kuzatiladi. Shunga ko‘ra, uslubning individual jihatlarini bildiruvchi omillar ijodkor asarlari tahlili orqali oydinlashtiriladi. Odatda ijodkor qaysi janrda, qaysi mavzuda, qanday voqeani tasvirlamasin, uning umumiyligi o‘ziga xosligi boshqa adiblardan ajratib turadi. Shu nuqtayi-nazardan qaraganda Jizzaxlik adiba, Shahlo Ahrorovning asarlarida ham ijodkorning o‘ziga xos dunyoqarashi va badiiy tafakkurini kuzatish mumkin. Uning detektiv janrda yozilgan, ushbu asari hayotning qora, chirkin jihatlarini tasvirlashga qaratilgan. Bunda inson tabiatidagi yovuzlik, jinoyatga moyillik o‘ziga xos uslubda yoritilgan.

Adibaning “Dala hovlidagi qotillik” qissasining nomlanishiyoq kitobxonni qiziqtirib qo‘yadi va kishini asar voqealarini tomon yetaklab boradi. Undagi voqealar hayotiyligi, ishonarligi bilan birga jamiyatdagi kishilarni jinoyatga yetaklovchi omillar bilan ham tanishtirib boradi, uning sabablarini oydinlashtirib beradi. Qissaning detektiv janrda yozilganini e’tiborga olib, shu yo‘nalishga doir nazariy qarashlarimizni belgilab olsak, asar nomidan ham ko‘rinib turibdiki, qissa detektiv yo‘nalishda yozilgan. Shu o‘rinda, detektiv janri xususida to‘xtalsak.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. “Detektiv inglizcha detective, lot.detectio – ochish, fosh qilish, aniqlash. Josuslar, yashirin ayg‘oqchilar, izquvarlar hayoti sarguzashtlari, murakkab jinoyatlarning ochilishi haqida hikoya qiluvchi (badiiy asar yoki film) [6.601] janr. Odatda bunday hodisaning asl sababi qonunbuzarlik bilan adolat o‘rtasidagi kurashdan iborat bo‘ladi va haqiqatning tantanasi bilan yakun topadi” [2].

Demak, detektiv asarda biron–bir favqulodda jumboqli hodisaning tadqiq qilinish jarayonlari, unda sodir bo‘ladigan holat va vaziyatlar, izlanish va yechimlar tasvir etiladi. Detektiv asarning markaziy qahramonlari hisoblanadigan jinoyatchi va jabrlanuvchi hayotiga doir yaqin tarix muallif nuqtai nazaridan qayta tiklanadi.

Yuqorida gilarga asoslangan holda, aytish mumkinki, “Dala hovlidagi qotillik” qissasi zamonaviy izchil realistik detektiv mavzuga yaqin uslubda yozilgan. Qissa ga kiritilgan har bir obraz, portret, detalb, tasvir, voqealik bir–biriga uzviy yaxlitlikda olib boriladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Detektiv asarlardagi uslubiy o‘ziga xoslik faqat badiiy asar tiliga, adib tomonidan qo‘llanilgan ibora yoki hikmatli so‘zlargagina daxldor emas, bunday asarning syujeti va kompozitsion qurilishi ham uslubiy jihatdan kutilmagan hodisalarning uyushtirilishi bilan ajralib turadi.

“Ma’lumki, san’atkor to‘g‘ridan-to‘g‘ri hayotdan nusxa ko‘chirmaydi, balki unga haqiqatan o‘xshash qilib, yangi bir dunyo yaratadi, kashf etadi. Boshqacha aytganda, hayotiy haqiqatdan badiiy haqiqat yaratadi; hayotiy fakt va hodisalarni o‘zining ruhiy labaratoriyasida “qaynatishi”, ishlashi, sintezlashtirishi, ya’ni tasavvuri, xayoli, orzusi, tajribasi, qalbi, tabiat, dunyoqarashi bilan boyitgan va muayyan g‘oyaga xizmat qiluvchi xarakterli va zaruriy detallarni, fakt va hodisalarni tanlagan holda tugallik kasb etgan (obrazli) badiiy hayotni yaratishi zarur; yaratganda ham bu hayot kitobxon ko‘z o‘ngida jonli va real, ishonchli va go‘zal, ta’sirchan va yaxlit bo‘lib gavdalanishi shart” – [4.13] ekan, “Dala hovlidagi qotillik” qissasi xuddi shu talablar asosida yozilgan.

Darhaqiqat, hayotiy qamrov hamda badiiy to‘qima bir–biriga nisbatan daxlsiz rivojlanadigan tushunchalar, ularning o‘zaro mutanosibligi va raqobati uslub tizimini barqarorlashtiradi. Aynan, sistem yaxlitlik hayotiy tajriba hamda ijodkor fantaziyasi sintezining bir–biriga tutashuvi samarasni o‘laroq, adabiy mahoratni birinchi o‘ringa chiqaradi.

Shu ma'noda, badiiy chambarchaslik qonuniyligi ifoda tig'izligi hamda tasvir ruhiyatini xususiyashadiradi.

Qissa qahramoni, Muhabbat tabiatida yigitlarga xos chapanilik, quv, shaddod fe'l bo'lishiga qaramay taqdir qarshisida ojiz qoladi. Uning go'zaligiga har qancha shaydo bo'lmasin, yigitlar uni yaqiniga kela olmas, unga hatto gapirishga ham hayiqib yurgan bir vaqtda, surbet Vohid qo'liga bir kun kelib, o'yinchoq bo'lishi uni yetti uxlab tushiga kirmagan edi. Adib qissada tasvirming ixcham usuli, ya'ni jumboqli tasvirlash yo'lidan boradi.

“Manfur va makkor...palid” [1.7] Vohid tajovuziga uchragan, pok muhabbat tuyg'usini yuragida saqlab yurgan Muhabbat. bir kunda hayoti izdan chiqib ketishi, keyinchalik esa uni qotiliga aylanishi taqdir charxpaligini o'yinidir, balki.

Qissada, Vohid tomonidan zo'rlik bilan nomusi toptalgan Muhabbat noiloj o'zi istamagan, nafratlangan odam qiyofasidagi manfur kimsadan farzand ko'rishga majbur bo'ladi. To'g'ri, Vohid unga sovchi yuboradi, lekin yuragida tug'yon urgan ilk, sof muhabbatidan ayrilishga sabab bo'lgan hayvoni hirs egasi Vohidga nisbatan Muhabbatda nafrat va g'azabdan o'zga tuyg'u yo'q edi. Shu sababdan bo'lsa kerakki, u endigina dunyo yuzini ko'rgan “sen judayam shirontoysan” [1.3] deb erkalagan bolasidan ham voz kechishga majbur bo'ladi. Shunday azobli onlarni boshdan kechirayotgan, bor orzu-umidlaridan mosuvo bo'lgan Muhabbatning bundan keyingi holati, qissada keskin burilish yasaydi.

Barchamizga ayonki, qissa detektiv voqe, har doim dramatik to'qnashuvni o'z ichiga oladi va bunda hayotning dramatik vaziyatlariga e'tibor qaratiladi. Shunday to'qnashuvlaridan biri, qarshisida ojiz qolgan Muhabbat va Vohid o'rtasida bo'lib o'tadi:

–Iye! Yangilik! – Vohidning istehzo bilan iljaygan basharasida (Muhabbat uchun yuz emas edi u) qiz uning manfur va makkor qiyofasini jonlantirdi o'zi uchun. Aslida ham shunday edi. –Anchadan beri ko'rinnmay qo'yuvding? – Vohid masxaromuz kului. –Qorning kichrayib qoldimi? Bolangni qaysi otasiga berib kelding? –Bu haqiqatan ham manfur insonning savoli edi.

–Menga sen iflosdan boshqa hech kim teginmaganini yaxshi bilasan!...

–Xo'sh, yana nima deb bo'ynimga osilmoqchisan? Aytgandim–ku, men sendan ham, yigitindan ham alamimni oldim deb... Bu oyimcha esa yuborgan sovchilarimni haydab solibdilar. Endi uylanmayman! Agar shuni so'rab kelgan bo'lsang ovora bo'lma!” [1.7].

Qissada Vohidning ma'naviy qashshoqligi shu tarzda ochila boradi. Darhaqiqat, har bir yozuvchining o'z iste'dodi va iqtidori, o'z dunyoqarashi va vogelik bayonida individual tasvir tamoyillari bo'ladi. Vogelik badiiy talqinidagi o'ziga xos tamoyillariga e'tibor qaratar ekan, ma'naviy–axloqiy talqin muhokamasi goh muallif nutqi, ba'zan asar personajlari nutqi vositasida bayon etiladi.

Yuqoridagi dialogda ham muallif nutqi: “Muhabbat uchun yuz emas edi u... Aslida ham shunday edi...–Bu haqiqatan ham manfur insonning savoli edi” kabi jumlalarda ifoda etilsa, qolganlari esa asar qahramonlari nutqida namoyon bo'ladi.

Demak, har qanday badiiy asar vogelikning badiiy talqini bo'lib qolmasdan hayotning o'ziga xos falsafiy qonuniyatlarini aks ettiruvchi zalvorli fikrlarni ham o'rtaga tashlashi bilan muvaffaqiyat qozonadi. Qissada, bu Muhabbatning:

–Qanoti qayrilgan joyga qush ham qaytib bormaydi. Men ikki dunyodayam senday palidning xotini bo'lmayman!” [1.7], yoki qissa oxirog'ida Rasulni Mehrojga aytgan: “It tekkan bilan daryo harom bo'lmaydi” [1.57] kabi so'zlarida o'z ifodasini topgan.

Shu o'rinda alohida e'tirof etish lozimki, detektiv asar mohiyati qotillik sodir etilishi va qotilning qo'lga olinishidagina namoyon bo'lmaydi. Ularda, shubhasiz, insonparvarlik g'oyalari, insonning shaxsiy muammolari, ruhiyatida yuz beradigan

o'zgarishlarni, yovuzlik va ezhgulik o'rtasidagi kurash, jinoyatchining ko'nglida ro'y beradigan ma'naviy, psixologik holatlar aks etadi.

Qissa qahramoni Muhabbat ham qotil, ham jabrlanuvchi. Chunki ularning ikkinchi to'qnashuvi Muhabbatning Vohidga pichoq urishi va o'z aybiga iqror bo'lishi bilan yakunlandi. Hayotiniadolat mezonlari asosiga qurgan Muhabbat o'ziga nisbatan qilingan tubanlikka boshqacha javob bera olishi mumkinmi? Uning psixologik holatidan kelib chiqsak, yo'q albatta.

Qissa voqealariga qaytadigan bo'lsak, Muhabbat tahsil oladigan institut o'qituvchilaridan biri ustidan nohaq prokuratura tekshiruv olib borganda ham o'qituvchisini qo'rqlay, katta ishonch va qat'iyat bilan himoya qilish jarayonida ko'rishimiz mumkin:

—Kimingiz bo'ladi bu o'qituvchi? —deb so'ragandi yigit.

—Kimim? Qarindoshingmi, demoqchimisiz? Men undan qarzdorman. Nima uchun qarzdorligimi aytaymi? U menga ilm bergan. Ilmni ko'chada duch kelgan odam beravermaydi. O'z fanining fidoyisi u. U mening ustozim bo'ladi! Ustoz har qanday qarindoshdan ham azizroq ekanini bilmaysizmi?” [1.9].

Shunday farosat va teran aql sohibasi Muhabbat ijtimoiy hayotdagagi adolatsizlik, jinoyatchilik, axloqsizlik kabi salbiy hodisalarga befarq qarab tura olmaydi. Ma'lumki, detektiv janr kompozitsiyasi kutilmagan voqeliklar bayonini o'z ichiga olgan syujet, qotillik qilmishlarining mukammal tartibdagi qurilishi vositasida qiziqarli tus oladi. Qissa davomida Mehroj va Barno munosabatida, Muhabbat va Rasul ayanchli qismatlari takrorlanishi fikrimiz isbotidir.

Ma'lumki, yozuvchi inson haqidagi dastlabki tasavvurni tasdiqlash yoki rad etish uchun uni ob'yekt darajasiga ko'taradi. “Bunda u uch narsaga – xayoldagi inson–ideali, o'z ichki dunyosi va ijtimoiy guruh haqidagi o'z tasavvuriga tayanadi. Qarshisidagi odamni shu uch unsur bilan muqoyasa qilish orqali tasavvur hosil qiladi. Ko'pincha tasavvur hosil bo'lishida ilk taassurot (ideal bilan muqoyasaning hosilasi sifatida yuzaga kelgan simpatiya yoxud antipatiya) asos vazifasini o'taydi” [5.163]. Tasvir ob'yekti bilan taassurot ko'lami orasidagi bog'lam adib uslubi individualligini belgilaydi. Adiba asarda ko'p personajlarga Muhabbat, Vohid, Rasul, Nosir, Ma'ruf, Sarvar, Bakir, Munira, Sanobar, Barno ta'rif berarkan, birinchi galda obraz ijtimoiy qiyofasidagi kemtikliklarga ishora qiladi. Gap shundaki, har bir qahramon to'liq estetik yuk tashuvchisi bo'lmasa– da, inson xarakterining ba'zi qirralarini aloqalantiradi. Shu nuqtai nazardan, qamoqdan chiqqan Nosir tabiatiga nazar tashlaylik. Muallif qahramon shaxsiyatining har bir qirrasini mantiqiy urg'ulash vositasida xarakter taqozosini hosil qiladi.

Dalahovlida tashkil etilgan Barnoning tug'ilgan kunida Nosir o'ldirildi. Gumondorlar ko'p, hech kim voqeа guvohi bo'lmagan. Seviklisi tug'ilgan kuniga, tashrif buyurgan ichki ishlар xodimi Mehroj qotillikni o'rganishga kirishadi.

Detektiv voqeа har doim dramatik to'qnashuvni o'z ichiga oladi va bunda hayotning dramatik vaziyatlariga e'tibor qaratiladi. Voqeа detektiv qahramoni va turli savollarga kim o'ldirdi? Qanday qilib? Nima uchun? javob qidiradigan kitobxon o'rtasida dialog shaklida hikoya qilinadi. Qissada ham xuddi shunday bo'ladi:

—Qotillik? Kim?

—Nosirni o'ldirishgan.

Ma'ruf angrayib qoldi. U o'ziga tikilib qolgan mehmonlarga yelka qisdi:

—Nima, mendan gumonsirayapsizlarmi?

—Odatda, qotil aniqlanguncha, hammadan gumonsiriladi. Aytmoqchimanki, faqat sizdan emas. —dedi Mehroj [1.28].

Shundan so'ng Mehroj va gumondorlar o'rtasida qotilliq xususida savol –javoblar bo'lib o'tdi. Gumondorlar bilan o'tgan suhbatda Nosirni chirkin qiyofasi yanada yorqinroq

ochilib bordi. Kechaga tashrif buyurgan Nosirni do'sti Ma'ruf, Sarvar, Bakir, Munira, Nosirni ajralib ketgan, lekin uni zug'umi ostiga kechaga kelgan sobiq xotini Sanobar, o'gay onasi, va o'gay singlisi Barno barchalari ko'rgan bilganlarini aytib berishadi. Lekin eng yomoni, Nosirning barcha yomon, razil ishlarining eng dahshatlisi so'roqlar natijasida ochiladi va bu Mehrojni yuragini larzaga soladi.

Chunki, Mehrojni samimi tuyg'u muhabbat ila sevgan Barno ham kuni kelib, xuddi Mehrojni onasi Muhabbat kabi nomusi toptalanganligi ma'lum bo'ladi. Lekin ming afsuski, bu manfur kimsa, begona emas, balki uning o'g'irlilik tufayli qamalib, yaqinda qamoqdan chiqqan o'gay akasi Nosir edi.

Detektiv voqeа har doim dramatik to'qnashuvni o'z ichiga oladi va bunda hayotning dramatik vaziyatlariga e'tibor qaratiladi: "Biroz o'tib, eshik qo'ng'irog'i jiringladi. Barno eshikni ochib, orqaga tisarildi. Ostonada mast holda Nosir turardi...

—Nima qilyapsiz? Qo'yvoring! Qo'yvor deyapman! Hozir dod solaman! Ayajon! Yordam bering! —Barno jon holatda dod sola boshladi. U qo'rquv va bziga tushgan kuchli zarbadan hushidan ketdi... Barno o'ziga kelganda, Nosir ro'parada sigaret tutatib o'tirardi. Barnoning qo'zg'alganini ko'rib, qo'lidagi sochiqni uning ustiga uloqtirdi.

—Iflos! Maraz! Nima qilib qo'yding! —Barno alam bilan yig'lagancha, tizzalarini mushtlay boshladi. —Endi nima bo'ladi? Sharmanda bo'ldim! Sharmanda!

—Bas qil! Hech narsa bo'lmaydi! Esingda bo'lsin, hech kimga og'iz ocha ko'rma! Ayniqsa, onangga! Bo'lmasa ikkalang ham o'ldim deyaver. Tushunding—a? —Nosir uning boshiga kelib, engagidan ko'tarib, o'ziga qaratdi. —Agar hech kimga og'iz ochmasang, o'zim qiz bola qilib uzatvoraman seni. Ammo lom—mim desang, — Nosir ikkinchi qo'lini qizning bo'g'ziga tortdi. —Meni bilasan—a” [1.49].

Shu o'rinda, alohida e'tirof etig kerakki, asarda “timsollarning puxta ishlanganligi, personajlarning har biri individual tilga ega qilib tasvirlanganligi bilan diqqatga loyiqidir” [3.44].

XULOSA. Yozuvchi o'zi ifodalayotgan vogelikning qaysidir bir qirrasini sir saqlashi mahorat sifatida baholanishiga loyiq ekan, qissada ham mana shunday sirlilikdan yozuvchi bir necha o'rinda mahorat bilan foydalangan.

Xususan, Mehrojni Muhabbat o'g'li ekanligini, ustozni Rasul qissa so'ngida bilishi, Nosir bilan do'sti Ma'ruf o'rtasidagi kelishmovchilik, Nosir bilan sobiq xotini Sanobar o'rtasidagi nafratni boshi zo'rlik ekanligi, fojia sodir bo'lganidan, ya'ni Nosir vafotidan so'ng ochilishi, bunga yaqqol dalildir. Shunga muvofiq, ularning qaysi toifadagi qahramonlari bo'lishidan qat'i nazar, xususan, detektiv nasrda o'z tabiatiga ko'ra, ijtimoiyadolat, inson erki uchun kurashayotgan siymolar tarzida maydonga chiqishini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, “Dala hovlidagi qotillik” detektiv qissasi tarbiyaviy, adabiy—estetik, ham axloqiy muammolarni talqin etishi bilan boshqa yo'naliishdagi badiiy adabiyot namunalaridan qolishmaydi.

Adabiyotlar

1. Ahrorova Sh. Dala hovlidagi qotillik. –T.: Noshirlik yog‘dusi, 2017.
2. Detective. <http://m.wikipedia.org/wiki>.
3. Yo‘ldosh Q. So‘z yolqini.–T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot–matbaa ijodiy uyi, 2008.
4. Umurov H. Badiiy ijod asoslari. –T.: O‘zbekiston, 2001.
5. Quronov D. Cho‘lpon nasri poetikasi. –T.: Sharq.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Birinchi jild.–T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008.